



SAN'AT VA MADANIYAT TUSHUNCHASI MILLIY HAMDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING POYDEVORI

Umarova Fozila.

O'zDSMI 2-kurs "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi" ta'lim yo'nalishi talabasi

Xodjayev Fatxulla.

Ilmiy rahbar: O'zDSMI "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada san'at va madaniyat tushunchasi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning poydevori xususida fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada san'at va madaniyat tushunchalarining bir-biri bilan o'zaro bog'liqlik xususiyatlari, madaniyatning milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, qadriyat, umuminsoniylik, urf-odalar, sivilizatsiya, ma'naviy boylik

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о понятии искусства и культуры как основы национальных и общечеловеческих ценностей. Также в статье представлена информация о взаимосвязи понятий искусство и культура, а также о том, что культура тесно связана с национальными ценностями.

Ключевые слова: культура, искусство, ценность, универсальность, обычаи, цивилизация, духовное богатство.

Abstract: In this article, opinions are expressed about the concept of art and culture as the foundation of national and universal human values. The article also provides information on the interrelationship of the concepts of art and culture, and the fact that culture is closely related to national values. Key words: culture, art, value, universality, customs, civilization, spiritual wealth

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan kuchlidir[1] Madaniyat deganda individual va jamoaviy amaliyotga rahbarlik qilish uchun avloddan avlodga o'tadigan ijtimoiy guruhning moddiy va ma'naviy boyliklari tushuniladi. Unga til, jarayonlar, turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar, naqshlar, vositalar va bilimlar kiradi[2].

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqalar shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Farobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, "oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi", bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, "madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma tengdir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yokitanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar"[3].



Yevropada “madaniyat” tushunchasi dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. cultura so'zidan olingan bo'lib, yerni ishlash, parvarishlash;). Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlariga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan. Ellinlar “madaniyatsiz” varvarlardan o'zlarining asosiy farqini “payday”, ya'ni “tarbiyalanganlik”da deb bilganlar[4]. Qadimgi Rimning so'nggi davrlarida “madaniyat” tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o'rta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushunchakeyinchalik kelib chiqqan sivilizatsiya tushunchasiga yaqin turadi. Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodga meros qilib qoldirishni bildiradi.

Har qanday jamiyat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, bor bilim olami bo'lib, u insonni qayerda yashashini belgilashga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun o'ta shaxsiy mohiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabatga o'tadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo'luvchi axloq va shakillarni yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Taxsinga loyiq joyi shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munozarali emas, balki muloyim munosabat shakillanadi. Jamiyat, avvalo tarixning muayyan bir taraqqiyoti bosqichida tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi bo'lib, rivojlanuvchi kishilar hayotiy faoliyatlarning majmuidir. Shuningdek, jamiyat kishilik tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tizimning aniq tipidir.

San'at ham bevosita milliy qadryatlarning asosiy hamda shu bilan birga ta'sirchan, rang-barang va o'zgacha timsollaridan biri hisoblanadi. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan ijtimoiy jarayon hisoblanadi. San'at insonlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his tuyg'u, manfaat hamda ideallarini ifoda etgan. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. San'at isonidealining, uning ichki olamida aks etgan rangdor bo'yoqlarning, yangi bir dunyoning zohiriy jihatdan aks etishi va inson dunyoqarashi, mavjud obe'ktiv dunyo va undagi hodisalarga bo'lgan munosabatining qaysidir predmetga tabiiy ta'sir etish orqali rang barang va nozik tarzda namoyon qilish jarayonining umumiy tasnifi hisoblanadi. San'at milliy qadryatlar hamda an'analarning bevosita turli bo'yoqlar hamda yondashuvlar asosida aks etishi, uning ichki olam hamda harakterini boshqalarga ta'sirchan tarzda yetkazish hamda ushbu qadryatlarning kelgusi avlodlarga me'ros sifatida qoldirishiga za'min yaratuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, san'at jamiyat ijtimoiy hayotining o'ziga xos tarzdagi, muayyan bir ijtimoiy davr muammolari, yutuqlari hamda hodisa jarayonlarini o'zida aks ettirishi hamda tarbiyaviylik, yo'naltirish hamda



rag'batlantirish funksiyalari bilan ham ajralib turadi. Shuningdek san'at milliylik elementlarini targ'ib qilish hamda uni saqlagan holda avlodlarga yetkazishning samarali vositasi ham hisoblanadi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, jahon miqyosida har soniya yangi axborotlar, turi xilda ma'lumot hamda lavhalar ijtimoiy tarmoqlar hamda xalqaro internet tarmogi orqali tarqalayotgan bir sharoitda, milliy ma'naviyatimiz, milliy qadryatlarimiz, mental xususiyatimiz, o'zligimiz hamda milliy madaniyatimizni saqlab qolish hamda ularga hurmat hissini, milliy ruhni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Dunyo miqyosida "ommaviy madaniyat" nomi ostidagi turli xalqalar va millatlar, ayniqsa poklik hamda ozodalik, o'zaro hurmat hamda ornomus, iffat va sharm hayo ustiga qurolgan sharq jamiyati uchun butkul to'g'ri kelmydigan.[4] Inson hayot tarzini befoda o'yin-kulgu, aysh-ishrat bilan o'tkazishni, uning milliy va umuminsoniy qadryatlarni unutib, ongsiz individ holatiga keltirishni targ'ib qiluvchi g'oyalar va madaniyat oqimlari vujudga kelmoqda. Uning ta'siri ostida esa millat o'zining milliy harakteri hamda uzoq yillik tarixiy tajribasi natijasida sayqal topgan madaniyat tizimidan mahrum bo'lmoqda. Bunday vaziyatda insonlar ongi shuuriga san'atning ta'sirchan vositalari orqali o'zligimizning go'zal va takrorlanmas qirralarini ochib berish, uning jamiyat va millat hayotidagi o'rnini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, har qaysi millat va jamiyat, muayyan irq hamda ijtimoiy guruhning uzoq yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlari hamda an'analari, urf-odat va milliy mental xususiyatlari ushbu millatning ruhini, ichki olami, orzu intilishlari, ezgu maqsadlari, oldida turgan ijtimoiy vazifalari, tarixi hamda buguni, ijtimoiy o'rni hamda harakterini belgilab beradi hamda ularning bus butun holda saqlab qolinishi millatning tirikligi, uning mavjudligining asosiy belgisi va xususiyati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videosektorda so'zlagan nutqidan. 19.01.2021
2. Mirziyoyev Sh.M. "Oliy Majlisga murojatnomasi", Toshkent, 2019.
3. B.Isoqov. Ma'naviyat - taraqqiyot mezon. Namangan 2018. Namangan.
4. Бобоев Х., Хдмроев Т., Алимасов В. Маданиятшунослик. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.-6-7 б.
5. Шермухамедов С. Ижтимоий тараккиёт ва маънавий маданиятнинг узаро таъсири. -ФарФона: 2019. -7 б.
6. Абдурахмонов М., Рахмонов Н. Маданиятшунослик -Тошкент: 2008. - 37
7. Очилдиев А. Маданият фалсафаси. -Тошкент: Мухаррир, 2019. - 33 б.



8. Ростовцева Т.А. Философия общественного сознания: опыт феноменологического анализа. Красноярск, 2022. - 79 с.